



## XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 28 - dekabr

VII-60-162-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

### **Tumanda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturining joriy yil o’tgan davridagi ijrosi to’g’risida**

Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi ijrosini barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarda tizimli davom ettirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining ijrosi to’g’risidagi tuman hokimi o‘rinbosari Sh.Vafoyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, sektor rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan Davlat dasturida o‘zlari mas’ul etib belgilangan har bir bandning o‘z vaqtida va to‘laqonli bajarilishi yuzasidan o‘z komplekslarida tanqidiy ko‘rib chiqib, qat’iy choralar ko‘rsin;

boshqa davlat organlari va tashkilotlari asosiy ijrochi bo‘lgan bandlar bo‘yicha hamkorlikda ishlarni tashkil qilsin, ularga amaliy yordam ko‘rsatsin, zarurat bo‘lganda, o‘zlariga birlashtirilgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan bog‘liq masalalarni hal qilinishini ta’minlasin;

2023-yilning hozirgi kunga qadar belgilangan topshiriqlarning ijrosini mas’ul korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirokida tanqidiy ko‘rib chiqsin hamda kamchilikka yo‘l qo‘ygan mas’ul rahbarlarga nisbatan choralar ko‘rilishini ta’minlasin.

Davlat dasturida o‘zlari mas’ul etib belgilangan har bir bandning o‘z vaqtida va to‘laqonli bajarilishini ta’minlab, natijasi to’g’risida hisobot berib borsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosarlari:

Davlat dasturi ijrosini ta’minlash borasida xodimlar o‘rtasida qat’iy ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha zarur choralarni belgilasin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tashkiliy-kadrlar guruhi (X.To‘ychiev):

Davlat dasturining ijro holatini tahlil qilish va uning monitoringini olib borish amaliyotini davom ettirgan holda dasturda belgilangan tadbirlarning ijro holati yuzasidan ma'lumotlarni kundalik tarzda "ijro.gov.uz" elektron tizimiga kiritib borsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (L.Mansurov), Yil dasturining amaldagi ijrosini doimiy yoritib borsin.

Dastur amalga oshirilishining borishi to'g'risidagi axborotni aniq ko'rsatkichlar va erishilgan ijobiy o'zgarishlarni, tahliliy axborot ko'rinishida aks ettirgan holda, har oyda hokimlik veb-saytlarida joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosarlari(A.Bo'riyev, Sh.Vafoyev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**A.Fayziyev**